

III bo'lim. **Mo'jizalar olami**





Mo'jiza haqida uchta fikr ayting.



Dunyo mo'jizalari

O'zining buyukligi va go'zalligi bilan insonlarni lol qoldirgan san'at va muhandislik tafakkuri mahsullarini qadimda dunyo mo'jizalari deb atashgan. Katta va mahobatli haykallar, ibodatxona va saroylar olam mo'jizalari sifatida tan olingan edi. Qadimgi insonlar yetti mo'jizadan iborat o'ziga xos dunyoning e'tiborga sazovor joylari ro'yxatini tuzishgan. Qadimgi olam mo'jizalaridan faqatgina Misr ehromlari saqlanib qolgan.

BOBIL OSMA BOG'LARI

Dunyoning yetti mo'jizasi ro'yxatining ikkinchi pog'onasidan Bobil osma bog'lari o'rin olgan. Bu sirli va noyob afsonaviy qurilma toshqin tufayli shikastlangan. Nima uchun bu bog'larni osma deb atashganini o'ylab ko'rganmisiz? Afsonalarga ko'ra, unga bunday nom berilishiga sabab, shahar cho'lining o'rtasiga tushgan bo'lib, atrofiga ustunlar yordamida yam-yashil gullab turgan ayvonlar qurilgan. Chindan ham bog'lar havoda muallaq osilib turganga o'xshagan, ko'plab yo'lovchilar avvaliga bu manzarani sarob deb o'ylashgan.



MISR EHROMLARI


Fir'avn Xeops piramidasi Giza shahri yaqinida qurilgan bo'lib, hozirgi paytda u Qohira shahri atrofida joylashgan. Ilk 10 yillikda yo'l qurilish ishlari olib borilgan, buning uchun kattakon toshlar daryoga va yerosti tuzilmalariga yetkazib berilgan. Inshootning qurilish jarayoni 20 yil davom etgan. Xeops piramidasi XIX asrning oxiriga qadar dunyoning eng baland inshooti sifatida asrlar davomida rekordni ushlab turgan. Uning balandligi 147 m ga yetgan.



Hozirgi dunyoning yangi yetti mo'jizasiga bizning davrimizgacha saqlanib qolgan mo'jizaviy inshootlar jo bo'lgan. Ularning ayrimlari bilan tanishing:

BUYUK XITOIY DEVORI

Barcha davrlarning noyob qurilishi hisoblangan Buyuk Xitoy devori insoniyat tarafidan qurilgan eng uzun inshoot sanaladi. Uning uzunligi 8852 km dir. Devorning balandligi yetti yarim metrni, eni esa olti yarim metrni tashkil etadi. Devorni qurishdan maqsad Sin imperiyasining shimoldan qilinadigan hujumlaridan saqlanish edi.



Asosiy xomashyo esa tuproq bo'lgan, uning tarkibida tosh va oddiy guruch unidan tayyorlangan g'isht ham bor edi. Buyuk Xitoy devori Xitoydagi milliy yodgorliklar ichida faxriy o'rinni egallagan. 1987-yilda esa UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatidan o'rin olgan.

TOJ MAHAL

Agradan uzoq bo'lmagan Jamna daryosi qirg'oqlarida joylashgan Toj Mahal haqida eshitmagan odam bo'lmasa kerak.

Bu obida Boburiylar sulolasi tomonidan qurilgan. Shohjahon Toj Mahalni rafiqasi Mumtoz Mahal sharafiga qurdirgan. Maqbara qurilishi 1630-yilda boshlanib, 1652-yilda tugallangan.

Dunyo mo'jizalari faqat qadimgi davlatlarda bo'lgan deb o'ylagan insonlar yanglishadilar. Bu kabi mo'jizalar bugungi kunda ham barpo etilyapti. Buning isboti tariqasida Avstraliyadagi Sidney opera teatri yoki Pragadagi Raqsga tushayotgan uyni misol keltirishimiz mumkin. Bu ro'yxatni esa yana davom ettirsa bo'ladi...



“Yosh bilimdon” ensiklopediyasidan



inshoot – qurilishlar, binolar
muallaq – osilgan, osilib qolgan
sulola – avlod bolalari. Bir avloddan tarqalib, vorislik, valiahdlik huquqiga ega, asosan, biron-bir taxtga o'tirgan podshohlar, xonlar



1. Qadimda olam mo'jizalari deb nimaga aytilgan?
2. Nima deb o'ylaysiz, nima uchun aynan Misr ehromlari haqida ma'lumot berildi?
3. Bobil osma bog'lari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Xitoy devorini qurishda qanday noodatiy mahsulotdan foydalanilgan?
5. Toj Mahal bilan yurtimizni nima bog'lab turibdi deb hisoblaysiz?
6. Hozirgi kunda dunyo mo'jizalari ro'yxati kengayib bormoqda, deb o'ylaysizmi? Javobingizni izohlang.



Ma'lumotlarni davom ettiring.

- a) Devorning balandligi yetti yarim metrni, eni esa olti yarim metrni tashkil etadi...
- b) Mumtoz Mahal sharafiga qurdirgan maqbara 1630-yilda boshlangan...
- d) Afsonalarga ko'ra, unga bunday nom berilishiga sabab, bu shahar cho'lining o'rtasiga tushgan...
- e) Inshootning qurilish jarayoni 20 yil davom etgan...



Dunyo mo'jizalari haqida berilgan matnlarni bir-biriga taqqoslab o'qing. Ulardagi qaysi jihatlarni mo'jiza deyish mumkinligini ayting.



Boshqotirmada yashiringan so'zni toping.



Dunyo mo'jizalari haqida qo'shimcha ma'lumotlar toping.